Registered in Germany Europa Revue Journal
ISSN: 1862-6564 Vol. 6 No. 10 (2026) Published October 24, 2026

METHODOLOGY FOR DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF MILITARY TRAINEES BASED ON A COMPETENCY-BASED APPROACH IN COMBINED-ARMS TRAINING

Radjapov Ruslan Ramazanovich

Faculty of the North-Western Military District, Department of Combined-Arms Training, Head of Cycle – Senior Instructor

Abstract

The article presents a methodology for developing the professional training of military cadets in general military training classes on the basis of the competency-based approach. The essence of the concepts of competence, professional training and professional competency is analysed, and a model of key competencies formed within the general military training disciplines (tactics, marksmanship, military topography, CBRN protection, military medical training, drill and physical training) is proposed. Five stages of the methodology (diagnostic, theoretical-motivational, simulator-practical, situational-tactical and reflective-assessment), development levels of competencies and assessment criteria are elaborated. The findings may be used to improve the educational process in military higher education institutions.

Keywords

competency-based approach, general military training, military cadet, professional training, professional competency, tactical thinking, situational exercise, assessment criteria.

UMUMQO‘SHIN TAYYORGARLIGI MASHG‘ULOTLARIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA HARBIY TA’LIM OLUVCHILARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Radjapov Ruslan Ramazanovich

Shimoli-G‘arbiy harbiy okrug fakulteti, Umumqo‘shin tayyorgarlik kafedrasi, sikl boshlig‘i – katta o‘qituvchi

Annotatsiya. Maqolada umumqo‘shin tayyorgarligi mashg‘ulotlarida kompetensiyaviy yondashuv asosida harbiy ta’lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligini

rivojlantirish metodikasi yoritilgan. Kompetensiya, kasbiy tayyorgarlik va kasbiy kompetentlik tushunchalarining mohiyati tahlil qilingan, umumqo‘shin tayyorgarligi fanlari (taktika, o‘q otish, harbiy topografiya, radiatsiyaviy-kimyoviy-biologik himoya, harbiy tibbiy tayyorgarlik, saf va jismoniy tayyorgarlik) doirasida shakllantiriladigan asosiy kompetensiyalar modeli taklif etilgan. Metodikaning besh bosqichi (diagnostik, nazariy-motivatsion, trenajyor-amaliy, vaziyatli-taktik va refleksiv-baholash), kompetensiyalarning rivojlanish darajalari va ularni baholash mezonlari ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari harbiy oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini takomillashtirishda foydalanilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: kompetensiyaviy yondashuv, umumqo‘shin tayyorgarligi, harbiy ta’lim oluvchi (kursant), kasbiy tayyorgarlik, kasbiy kompetentlik, taktik tafakkur, vaziyatli mashq, baholash mezonlari.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ОБУЧАЮЩИХСЯ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА В РАМКАХ ОБЩЕВОЙСКОВОЙ ПОДГОТОВКИ

Раджапов Руслан Рамазанович

Факультет Северо-Западного военного округа, кафедра общевойсковой подготовки, начальник цикла — старший преподаватель

Аннотация. В статье рассматривается методика развития профессиональной подготовки обучающихся военных вузов на занятиях по общевойсковой подготовке на основе компетентностного подхода. Раскрыта сущность понятий «компетенция», «профессиональная подготовка» и «профессиональная компетентность», предложена модель ключевых компетенций, формируемых в рамках дисциплин общевойсковой подготовки (тактика, огневая подготовка, военная топография, радиационная, химическая и биологическая защита, военно-медицинская, строевая и физическая подготовка). Разработаны пять этапов методики (диагностический, теоретико-мотивационный, тренажёрно-практический, ситуационно-тактический и рефлексивно-оценочный), уровни развития компетенций и критерии их оценивания. Результаты могут быть

использованы для совершенствования образовательного процесса в высших военных образовательных организациях.

Ключевые слова: компетентностный подход, общевойсковая подготовка, обучающийся военного вуза (курсант), профессиональная подготовка, профессиональная компетентность, тактическое мышление, ситуационное занятие, критерии оценивания.

KIRISH

Bugungi kunda zamonaviy qurolli to‘qnashuvlarning xarakteri tez o‘zgarmoqda: jangovar harakatlar yuqori dinamiklik, axborot va texnologik to‘yinganlik, qaror qabul qilish uchun vaqtning cheklanganligi bilan ajralib turadi. Bunday sharoitda kichik bo‘linma qo‘mondoni sifatida faoliyat yuritadigan zobit nafaqat nazariy bilimlarga, balki ularni murakkab, oldindan noma’lum vaziyatda qo‘llay olish qobiliyatiga ham ega bo‘lishi lozim. Shu sababli harbiy ta’lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligini “bilim–ko‘nikma–malaka” tizimidan “kompetensiya” tizimiga o‘tkazish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim jarayonini sifat jihatidan yangilash, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va olingan bilimlarni amalda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirish ta’lim siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan [1]. “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonun va 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi esa qurolli kuchlarni zamonaviy talablar darajasida rivojlantirish, harbiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi [2; 3; 4].

Kompetensiyaviy yondashuv g‘oyalari xalqaro ta’lim amaliyotida 1990-yillardan e’tiboran keng tarqaldi. L.Spenser va S. Spenser kompetensiyani insonning muayyan faoliyatda yuqori natijaga erishishini ta’minlovchi shaxsiy sifatlar majmuasi sifatida talqin qilgan bo‘lsa [10], Yevropa Kengashi doirasida V. Xutmaxer asosiy (kalit) kompetensiyalar tushunchasini ilmiy muomalaga kiritdi [11]. Rossiyalik olimlar I.A.Zimnyaya, A.V.Xutorskoy, V.A.Bolotov va V.V. Serikovlar esa kompetensiya va kompetentlikni farqlab, kompetensiyani ta’lim natijasiga qo‘yiladigan talab, kompetentlikni esa shaxsning shu talabni egallaganlik darajasi sifatida

ta’riflaydilar [7; 8; 9]. O‘zbek pedagogikasida bu masalalar pedagogik texnologiyalar va ta’limdagi innovatsiyalar kontekstida o‘rganilgan [5; 6].

Shunga qaramay, umumqo‘shin tayyorgarligi mashg‘ulotlarida kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishning yaxlit metodikasi yetarlicha ishlab chiqilmagan: mashg‘ulotlar ko‘pincha normativlarni bajarish va nazariy materialni yodlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, kursantning tahlil qilish, qaror qabul qilish, jamoada harakat qilish kabi sifatlari tizimli baholanmaydi. Mazkur maqolaning maqsadi – umumqo‘shin tayyorgarligi mashg‘ulotlarida harbiy ta’lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish metodikasini asoslash va uning amaliy qo‘llanish mexanizmlarini taklif etishdir.

Asosiy tushunchalar va nazariy asoslar

Kompetensiyaviy yondashuv – ta’lim jarayonining maqsadi, mazmuni, metodlari va natijalarini baholashni shaxsning real faoliyatda muvaffaqiyatli harakat qila olish qobiliyatiga qaratuvchi yondashuvdir. Harbiy ta’limda bu yondashuvning o‘ziga xosligi shundaki, kompetensiyaning “narxi” nafaqat o‘quv natijasi, balki jangovar vazifani bajarish sifati, shaxsiy tarkib xavfsizligi va qaror oqibatlari bilan o‘lchanadi.

Tadqiqotda quyidagi tushunchalar farqlanadi: kompetensiya – harbiy ta’lim oluvchi egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarga qo‘yiladigan oldindan belgilangan talab; kompetentlik – kursantning ushbu talabni amalda bajara olish darajasi; kasbiy tayyorgarlik – kasbiy faoliyatga zarur kompetensiyalarni maqsadli shakllantirish jarayoni va uning natijasi.

Umumqo‘shin tayyorgarligi harbiy kasbiy tayyorgarlikning poydevori bo‘lib, uning mazmuni odatda taktika, o‘q otish tayyorgarligi, harbiy topografiya, radiatsiyaviy-kimyoviy-biologik himoya, harbiy tibbiy tayyorgarlik, saf tayyorgarligi va jismoniy tayyorgarlikni qamrab oladi. Bu fanlarning har biri alohida bilim sohasi bo‘lishi bilan birga, jangovar vaziyatda yaxlit tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois kompetensiyaviy yondashuv fanlararo integratsiyani talab qiladi.

Umumqo‘shin tayyorgarligida kasbiy kompetensiyalar modeli

Amaliy faoliyat tahlili asosida umumqo‘shin tayyorgarligi doirasida shakllantirilishi lozim bo‘lgan oltita asosiy kompetensiyaning quyidagi modeli taklif etiladi (1-jadval).

1-jadval.

Kasbiy kompetensiyalar modeli

Kompetensiya	**Mazmuni**	**Shakllantiruvchi fanlar**
Taktik-tahliliy	Vaziyatni baholash, qaror qabul qilish, jangovar vazifani rejalashtirish	Taktika, harbiy topografiya
Qo‘mondonlik-boshqaruv	Bo‘linmani boshqarish, buyruq berish, javobgarlikni zimmaga olish	Taktika, saf tayyorgarligi
O‘q-qurol bilan ishlash	Qurolni xavfsiz va samarali qo‘llash, o‘q otish masalalarini bajarish	O‘q otish tayyorgarligi
Topografik-navigatsion	Xarita va asboblar bilan yo‘nalishni aniqlash, joyda mo‘ljal olish	Harbiy topografiya
Himoya va tibbiy	Ommaviy qirg‘in qurollaridan himoyalanish, birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish	RXBH himoyasi, harbiy tibbiy tayyorgarlik
Jismoniy-psixologik chidamlilik	Yuklama va stress sharoitida samarali harakat qilish	Jismoniy tayyorgarlik, barcha amaliy mashg‘ulotlar

Har bir kompetensiya uch komponentdan iborat deb qaraladi: bilim (kognitiv), amaliy harakat (faoliyat) va qadriyat-shaxsiy (motivatsion, ma’suliyat, intizom) komponent. Ana shu uchlik harbiy kasbiy tayyorgarlikning mohiyatini aniqlaydi.

Rivojlantirish metodikasining bosqichlari

Metodika besh ketma-ket bosqichdan iborat bo‘lib, har bir bosqichda kursantning mustaqilligi va vazifalar murakkabligi oshib boradi.

Birinchi bosqich – diagnostik**.** Kursantlarning boshlang‘ich tayyorgarlik darajasi test, normativ topshirish va kuzatuv orqali aniqlanadi. Natijalar asosida o‘quv guruhi

tipik darajalar bo‘yicha tabaqalashtiriladi va individual rivojlanish yo‘nalishi belgilanadi.

Ikkinchi bosqich – nazariy-motivatsion. Mavzuning kasbiy ahamiyati amaliy misollar, jangovar faoliyat tahlili va muammoli savollar orqali ochib beriladi. Bunda “keys-stadi” usulidan foydalaniladi: kursantlarga real yoki ishonchli modellashtirilgan jangovar vaziyat taqdim etilib, ularning ushbu vaziyatdagi qarorlari muhokama qilinadi.

Uchinchi bosqich – trenajyor-amaliy. Alohida elementlar (qurolni qismlarga ajratish va yig‘ish, mo‘ljal olish, azimut bo‘yicha harakatlanish, himoya vositalarini kiyish, jarohatga birinchi yordam ko‘rsatish) trenajyorlar va o‘quv jihozlarida takror ishlab chiqiladi. Bosqichning vazifasi – harakatni avtomatlashtirish va xatolarni xavfsiz sharoitda aniqlash.

To‘rtinchi bosqich – vaziyatli-taktik. Ilgari alohida o‘zlashtirilgan elementlar yagona taktik vaziyat ichida birlashtiriladi: kursant joyda yo‘nalishni aniqlaydi, bo‘linmaga vazifa qo‘yadi, himoya choralarini ko‘radi, o‘q otadi va “jarohatlangan”ga yordam beradi. Qo‘shimcha “kiritma” vaziyatlar (aloqa uzilishi, kutilmagan to‘siq, o‘rinbosarning “yo‘qotilishi”) kursantni ijodiy qaror qabul qilishga undaydi. Bu bosqich kompleks taktik mashq, taktik-maxsus mashg‘ulot yoki o‘quv-jangovar o‘yin shaklida o‘tkaziladi.

Beshinchi bosqich – refleksiv-baholash. Mashqdan keyin “tahlil” (разбор) o‘tkaziladi: kursant o‘z qarorlarini asoslaydi, xatolarini aniqlaydi, o‘rtoqlari va o‘qituvchi bilan fikr almashadi. Natijalar kompetensiya mezonlari bo‘yicha baholanadi va keyingi mashg‘ulotlar uchun individual vazifalar belgilanadi. Tajriba orqali o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, amaliy tajriba chuqur anglanib, umumlashtirilgandagina bilimga aylanadi; shuning uchun refleksiya metodikaning ajralmas qismi hisoblanadi. [12]

4. Kompetensiya darajalari va baholash mezonlari

Kompetensiyalarning rivojlanish darajasini aniqlash uchun uch darajali shkala taklif etiladi (2-jadval). Bu shkala o‘rganishning bilish jarayonlari murakkabligi

bo‘yicha tasnifiga hamda pedagogik texnologiyalar nazariyasidagi yondashuvlarga mos keladi [5; 6].

2-jadval.

Kompetensiya rivojlanishining darajalari

Daraja	**Tavsifi**	**Taxminiy ball**
Boshlang‘ich (reproduktiv)	Kursant amallarni namuna va ko‘rsatma asosida bajaradi; nostandart vaziyatda qiynaladi	56–70
O‘rta (qisman izlanuvchan)	Tanish vaziyatlarda mustaqil harakat qiladi; kichik o‘zgarishlarga moslasha oladi	71–85
Yuqori (ijodiy)	Murakkab, noaniq vaziyatda mustaqil qaror qabul qiladi, boshqalarni boshqaradi, xatolarni oldindan ko‘ra oladi	86–100

Baholash kompleks tarzda amalga oshiriladi va uch guruh ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi: (a) natijaviy ko‘rsatkichlar – normativlarni bajarish, o‘q otish natijasi, vazifani bajarish aniqligi; (b) jarayonli ko‘rsatkichlar – harakat ketma-ketligining to‘g‘riligi, xavfsizlik qoidalariga rioya, vaqtni taqsimlash; (v) shaxsiy-boshqaruv ko‘rsatkichlari – qaror asoslanganligi, tashabbus, jamoadagi muloqot, intizom. Amaliyotda quyidagi nisbat tavsiya etiladi: natijaviy ko‘rsatkichlar – 40 %, jarayonli – 30 %, shaxsiy-boshqaruv – 30 %. Bu nisbat kafedra metodik kengashi tomonidan fan xususiyatiga qarab o‘zgartirilishi mumkin.

Metodikani amalga oshirishning pedagogik shartlari

Metodikaning samarali amalga oshirilishi quyidagi shartlarga bog‘liq:

–o‘quv dasturlari va kalendar-tematik rejalarni kompetensiyalar bo‘yicha qayta tuzish, har bir mavzuga kutilayotgan o‘quv natijalarini aniq kiritish;

–mashg‘ulotlarning kamida katta qismini amaliy, vaziyatli va guruhli shaklda o‘tkazish, nazariy qismni qisqartirib, muammoli bayon va keys-metodlar bilan boyitish;

–o‘quv-moddiy bazani (trenajyorlar, o‘quv maydoni, simulyatsiya vositalari, maketlar, elektron o‘quv resurslar) zamonaviylashtirish;

–professor-o‘qituvchilar tarkibining kompetensiyaviy yondashuv bo‘yicha metodik tayyorgarligini oshirish, ilg‘or tajriba almashinuvini yo‘lga qo‘yish;

–kursantlarning har bir kompetensiya bo‘yicha rivojlanish dinamikasini kuzatib boruvchi “kompetensiyalar portfeli” yoki elektron monitoring tizimini yuritish;

–o‘quv jarayonida xavfsizlik talablariga so‘zsiz rioya qilish, chunki real jangovar vaziyatni modellashtirish har doim xavfsizlik chegarasida amalga oshirilishi shart.

Ushbu shartlar bajarilganda mashg‘ulot kursant uchun “normativni topshirish” emas, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatning modeli sifatida qabul qilinadi, bu esa o‘quv motivatsiyasi va mas’uliyat hissini oshiradi.

XULOSA

Olib borilgan tahlil umumqo‘shin tayyorgarligi mashg‘ulotlarida kompetensiyaviy yondashuvni qo‘llash harbiy ta’lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishini ko‘rsatdi. Quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi.

–Kompetensiya, kompetentlik va kasbiy tayyorgarlik tushunchalari farqlanib, umumqo‘shin tayyorgarligi uchun oltita asosiy kompetensiyadan (taktik-tahliliy, qo‘mondonlik-boshqaruv, o‘q-qurol bilan ishlash, topografik-navigatsion, himoya va tibbiy, jismoniy-psixologik chidamlilik) iborat model taklif etildi.

–Kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish metodikasi besh bosqichdan (diagnostik, nazariy-motivatsion, trenajyor-amaliy, vaziyatli-taktik, refleksiv-baholash) iborat bo‘lib, alohida elementlardan yaxlit taktik vaziyatga izchil o‘tishni ta’minlaydi.

–Kompetensiyalarning uch darajali shkalasi va natijaviy, jarayonli hamda shaxsiy-boshqaruv ko‘rsatkichlariga asoslangan baholash mezonlari kursantning haqiqiy tayyorgarligini ob’ektiv aniqlash imkonini beradi.

–Metodikaning amaliy samaradorligi o‘quv dasturlarini qayta tuzish, amaliy va vaziyatli mashg‘ulotlar ulushini oshirish, moddiy bazani yangilash hamda o‘qituvchilar malakasini oshirish bilan bog‘liq.

Kelgusida taklif etilgan metodikaning samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali kuzatish, kompetensiya ko‘rsatkichlarini kursantlar guruhlari bo‘yicha taqqoslash va natijalar asosida mezonlarni aniqlashtirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentyabr, O‘RQ-637-son.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahrirda). 2002-yil 12-dekabr.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.

4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2021. 464 b.

5. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent: O‘qituvchi, 2004.

6. Ishmuhamedov R., Abdukodirov A., Pardayev A. Ta’lim va tarbiyada innovatsion texnologiyalar. Toshkent: Iste’dod, 2008.

7. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004.

8. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированного образования // Народное образование. 2003. № 2. С. 58–64.

9. Болотов В.А., Сериков В.В. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе // Педагогика. 2003. № 10. С. 8–14.

10. Spencer L.M., Spencer S.M. Competence at Work: Models for Superior Performance. – New York: John Wiley & Sons, 1993.

11. Hutmacher W. Key Competencies for Europe. Strasbourg: Council of Europe, 1997.

12. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1984.